

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



“AUDIOMANUSCRIPT” – A PROJECT ON THE STUDY OF “AUDIOMANUSCRIPT” – A PROJECT ON THE STUDY OF ORIENTAL MANUSCRIPT SOURCES

Gayratjon Jumayev

Intern-Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Source, audio manuscript, lithograph, waqfnama, Siyar ul-Mulk.

Received: 21.02.23

Accepted: 23.02.23

Published: 25.02.23

Abstract: This article provides information about one of the grant projects "Audiomanuscript" conducted at the Tashkent State University of Oriental Studies. The importance of the project in illuminating our history and delivering it to our people has been highlighted.

“AUDIOMANUSCRIPT” – SHARQ QO‘LYOZMA MANBALARINING O‘RGANILISHIGA DOIR BIR LOYIHA

G’ayratjon Jumayev

Stajyor- Tadqiqotchi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Tashkent, O‘zbekiston

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: Manba, Audiomanuscript, toshbosma, qo‘lyozma, vaqfnama, Siyar ul-mulk.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida olib borilayotgan grant loyihalardan biri “Audiomanuscript” haqida ma’lumot beriladi. Loyihaning tariximizni yoritish va xalqimizga yetkazib berishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

“АУДИОМАНУСКРИПТ” – ПРОЕКТ ПО ИЗУЧЕНИЮ ВОСТОЧНЫХ РУКОПИСНЫХ ИСТОЧНИКОВ

Гайратжон Джумаев

Стажер-исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Источник, аудиозапись, литография, вакфнама, Сияр уль-мульк.

Аннотация: В этой статье представлена информация об одном из грантов проекта “Audiomanuscript”, реализуемом в Ташкентском государственном университете востоковедения. Подчеркивается важность проекта в освещении нашей истории и передаче ее нашему народу.

KIRISH

Sharq xalqlari tarixini yozma yodgorliklari asosida o‘rganish, bu yodgorliklarni ilmiy tadqiq etish, qo‘lyozma va toshbosma manbalarning tanqidiy va tabdil matnlarini nashr etish, mustaqillik yillarda yanada rivojlanib borayotganini guvohi bo‘lmoqdamiz. Sharq xalqlarning tarixiy o‘tmishi haqidagi asosiy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan manbalar xazinasi, albatta, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasi hisoblanadi. Ushbu Institut Markaziy Osiyo va Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, fani tarixi, Sharq mamlakatlari rivojinining zamonaviy muammolari, mustaqil O‘zbekiston bilan bu mamlakatlarning ko‘p qirrali aloqalarini o‘rganadigan yirik ilmiy tekshirish muassasasidir. Sharqshunoslik institutida 80 mingga yaqin alohida asarlarni o‘ziga jamlagan 26 mingdan ortiq qo‘lyozma kitoblar (IX-XX asr boshlariga oid) mavjud. Toshbosma va nashr etilgan kitoblarning umumiyligi soni 40 ming jildni tashkil etadi. Institutning qo‘lyozmalar xazinasida 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlar ham saqlanadi. Ular o‘zbek, arab, fors, tojik, urdu, pushtu, ozarbayjon, turk, tatar, turkman, uyg‘ur va boshqalar sharq xalqlari tillarida yozilgan bo‘lib, o‘rta asr va undan keyingi davrlar fanining turli tarmoqlariga, ya’ni tarix, adabiyot, falsafa, huquq, islomiy ilmlar va tasavvuf, falakiyot, kimyo, tabobat, geografiya, dorishunoslik, til, musiqa, matematika, ma’danshunoslik va boshqalar sohalarga oid.

ASOSIY QISM

Shuningdek, institut fondida Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr Roziy, Imom al-Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Moturidiy, Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bedil, Xoja Ahror asarlari bilan birga O‘rta Osiyo xonliklari davriga tegishli bir necha ming hujjatlar, yorliqlar vaqfnomalar to‘plangan. Vatanimiz tarixini haqqoniy o‘rganishda esa ushbu manbalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda, har biri o‘ziga xos ilmiy-madaniy obida bo‘lgan arab, fors, turkiy tillardagi manbalarni tadqiq etish, tarjima qilish, eng asosiysi, xalqimizga sof holda etkazish sharqshunoslari zimmasidagi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida, joriy yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy xodimlaridan tarkib topgan ilmiy jamoa “Audio manuscript” nomli grant loyiha ustida ishlarni olib borishmoqda. Bu loyihada Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalar nusxalari va tarjimalaridan foydalanimoqda. Loyiha o‘z ichiga ulug‘ ajdodlarimizdan qolgan, Vatanimiz tarixiga doir qo‘lyozma manbalarning audio shakllarini yaratish, ushbu audiolarni, qo‘lyozmalarning elektron nusxalari, tabdili, tarjima va tanqidiy matnlarini jamlagan holda elektron platforma va mobil ilovalari yaratish kabi ishlarni oladi. Loyihada manbalarning yo‘nalishlari quyidagi to‘rt guruhga ajratilgan:

- a) Tarixga oid manbalar;
- b) Siyosatga doir manbalar;
- c) Diniy manbalar;
- d) Adabiyotga doir manbalar.

“Xorazm ta’rifi”, “Hudud ul- olam”, “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” singari tarixiy manbalar;

“Temur tuzuklari”, “Siyar ul-mulk”, “Qobusnama” kabi siyosatga doir manbalarni;

“Xaj vauning sirlari”, “Saraxs ahli savollariga javob”, “Risolayi validiya” kabi diniy manbalar;

“Majolis un-nafois”, “Devoni hikmat” singari adabiyotga oid manbalarning audio shakllari yaratildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad ajdodlarimizdan yetib kelgan ilmiy merosimizni chuqur o‘rganish asosida, ilmiy asoslangan targ‘ibotlarni olib borish, qo‘lyozma manbalar asosida tariximiz, qadriyatlarimiz, adabiyotimiz – madaniyatimiz ildizlarini tadqiq etish va ushbu tadqiqot natijalarini xalqimizga yetkazib berish hisoblanadi. Loyihada olimlarimiz tomonida tadqiq etilayotgan qo‘lyozma manbalarni audio variantlarini yaratib borish va xalqimizga ushbu manbalarning audio shakllarini yetkazish hamda imkoniyati cheklangan (ko‘zi ojiz) aholi qatlami uchun ham yengilliklar yaratish kabi maqsadlar ko‘zlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2995-сонли қарори. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”// Халқ сўзи, –2017. 25 май.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4680-сонли қарори. “Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ошириш чорағтадбирлари тўғрисида” //16.04.2020. <https://lex.uz>. 14:00 22.05.2022.

3. Амир Темур Кўрагон. Темур тузуклари / Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси; Сўзбоши муаллифи ва масъул мухаррир Б.Аҳмедов. – Тошкент: Фан, 2019. – 160 б.

4. Алишер Навоий. Асарлари 12-жилд. Мажолис ун-нафоис. Тошкент. 1966. 125 б.